

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

# JORAI

Journal of



## RESEARCH

and

## INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

*Volume I, Issue 6*



IMFAKTOR  
PAGES

JUNE | 2023

ISSN: 2181-4058  
DOI Journal 10.56017/2181-4058

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 6-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ  
ТОМ-I, НОМЕР-6

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS  
VOLUME-I, ISSUE-6

ТОШКЕНТ - 2023

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 6 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-6>

## Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

## Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор  
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор  
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор  
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент  
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор  
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор  
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор  
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти  
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор  
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор  
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор  
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор  
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент  
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент  
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор  
Аскарлов Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор  
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

*Техника фанлари*

**SHOHOBALIYEVA Oyguloy Bobur qizi**  
*Andijon davlat pedagogika instituti*  
*o'qituvchisi*

**ABDIXALILOVA Maftuna Erkin qizi**  
*Andijon davlat pedagogika instituti*  
*talabasi*  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8026206>

## DIDAKTIK VOSITALAR TAYYORLASHDA ISPRING SUITE DASTURI IMKONIYATLARI

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilar bilimini baholovchi mediaresurslar tayyorlash usullari, media resurslar tayyorlash va amaliy dasturning boshqa imkoniyatlari haqida iSPRING dasturi va uning imkoniyatlari, iSpring Suite elektron nashrlar yaratish paketining imkoniyatlaridan biri iSpring QuizMaker dasturidan foydalanish, iSpring QuizMaker uchun tizim talablari, ushbu dastur yordamida tayyorlangan testni saqlash va zahira nusxasini yaratish tartibi, eng asosiysi o'z mataxassisligingizdan testlar bankini yaratish imkoniyatlari yoritib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** iSPRING dasturi, elektron nashrlar, MS PowerPoint, elektron test, PowerPoint dasturi.

### ШОХОБАЛИЕВА АЙГУЛОЙ БАБУРОВА

*Андижанский государственный педагогический институт*  
*учитель*

### АБДЫХАЛИЛОВА Мафтуна Эркиновна

*Андижанский государственный педагогический институт*  
*студент*

## ВОЗМОЖНОСТИ ПРОГРАММЫ ISPRING SUITE В ОБУЧЕНИИ ДИДАКТИЧЕСКИМ ИНСТРУМЕНТАМ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны методы подготовки медиаресурсов, оценивающих знания учащихся, программа iSPRING и ее возможности, использование программы iSpring QuizMaker, одна из возможностей пакета iSpring Suite для создания электронных публикаций, системные требования к были освещены iSpring QuizMaker, и использование этой программы, процедура сохранения и создания резервной копии подготовленного теста, а главное возможность создания банка тестов по вашей специальности.

**Ключевые слова:** программа iSPRING, электронные публикации, MS PowerPoint, электронный тест, программа PowerPoint.

**SHAHABALIYEVA Oyguloy Bobur kizi**  
*Andijan State Pedagogical Institute*  
*teacher*

**Abdikhililova Maftuna Erkhin kizi**  
*Andijan State Pedagogical Institute*  
*student*

## **DIDACTIC TOOL PREPARATION ISPRING SUITE PROGRAM OPTIONS**

### **ANNOTATION**

This article describes the methods of preparing media resources that evaluate student knowledge, the iSPRING program and its capabilities, the use of the iSpring QuizMaker program, one of the possibilities of the iSpring Suite package for creating electronic publications, the system requirements for the iSpring QuizMaker, and the use of this program. the procedure for saving and creating a backup copy of the prepared test, and most importantly, the possibility of creating a bank of tests from your specialty, were covered.

**Key words:** iSPRING program, electronic publications, MS PowerPoint, electronic test, PowerPoint program.

Bugun dunyoda yuz berayotgan to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli - harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Hozirda, o'quvchilarning fanlarni chuqur o'zlashtirishi, qiziqishlari rivojlantirish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbga yo'naltirishni amalga oshirish, qo'shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, internet tizimi yordamida axborot izlash, olish va qayta ishlashni o'rgatish bilan birga ularni nazorat etishning yangi mexanizmlarini amaliyotga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi.

O'zbekiston ta'lim sohasida islohatlarning yangi bosqichi hisoblangan PISA dasturida ishtirokiga tayyorgarlik bosqichi ustozlardan o'z ishlariga yangicha yondashishni talab etadi. Bu tizim mamlakatimizda yangi, bu borada ishlar endi boshlanganini nazarda tutsak, birinchi navbatda o'qituvchilarni bu tizim bilan tanishtirish, tizim talabi va imkoniyatlarini ularga tushintirish kerak bo'ladi [1].

iSpring Suite elektron nashrlar yaratish paketini ushbu <http://www.ispring.ru/ispring-suite> manzil orqali yuklab olish mumkin. Dastur avtomatik ravishda MS PowerPoint dasturi menyular satriga o'rnatiladi va alohida menyuda joylashadi. Elektron testlar yaratish uchun Ispring Quiz Maker moduli tanlanadi va ekranda oyna paydo bo'ladi. iSpring Suite dasturi didaktik vositalar tayyorlashda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, tez va oson yordam beradi. Bu dastur orqali ilovalarni PowerPoint slaydlariga aylantirish mumkin va o'quvchilarni qiziqtirish uchun interaktivlik qo'shish mumkin. iSpring Suite, quyidagi imkoniyatlarga ega:

1. Interaktiv testlar va sinovlar tayyorlash;
2. Audio va video materiallarni integratsiya qilish;
3. Animatsiya va multimedia vositalarni ishlatish;
4. Mobil qurilmalar uchun responsive kurslar yaratish;
5. E-booklar, PDF dokumentlari va digger materiallarning tahlilini olish;
6. Webinarlar uchun virtual auditoriyalar yaratish.

Bu imkoniyatlar iSpring Suite dasturini eng yaxshi didaktik vosita qiladi. Bu dastur orqali o'qituvchilar va o'quvchilarni qiziqtiradigan, interaktiv va qiziqarli kurslarni tayyorlashlari mumkin bo'ladi [2].

iSpring QuizMaker uchun tizim talablari:

- Tezkor хотира: 512 Mb yoki undan katta
- Qattiq diskdagi bo'sh joy: 100 Mb yoki undan katta
- Operatsion tizim: Microsoft® Windows® 2000/XP/2003/Vista/7™
- Adobe® Flash® Player ActiveX 9 or higher

iSpring QuizMaker dasturini ishga tushirgach ekranda "Начало работы" oynasini ko'nadi. Bu oyna yangi baholovchi test yoki anketa yaratish, testni ochish, testni import qilish imkoniyatlarini beradi. Bu dialog iSpring QuizMaker web resurslariga, tex yordam ko'rsatish va dasturiy maxsulotlarni sotib olish imkoniyatini beradi.

Test talabalarni bilimlarini tekshirish uchun xizmat qiladi. Testda to'g'ri javob variant mavjud bo'ladi. Javoblar uchun ballar beriladi. So'zlash bo'limi orqali test borishini kriteriyalarini, ballar qanday berilishini so'zlash mumkin [3].

Anketalar respondentlardan ma'lumotlar yig'ish uchun xizmat qiladi. Anketada savollarni to'g'ri javoblari bo'lmaydi.

Testda yuqorida keltirilgan savollarni ikkala tipi ham uchrashi mumkin. Misol uchun, testni oxiriga o'quvchilarni baholash uchun qo'shimcha ma'lumotlar yig'ishga ko'maklashuvchi bir necha anketa savollarini qo'shish mumkin.

Test yaratish iSpring QuizMaker dasturini ishga tushirgach siz ekranda «Начало работы» oynasini ko'ranadi. Unda yangi test yoki anketa yaratish, yaqinda yaratilgan testni ochish mumkin. Bundan tashqari yangi testni asosiy menyu yordamida ham yaratish mumkin:

1. Asosiy oynaning chap yuqori qismida joylashgan QuizMaker logotipiga cherting.
2. Hosil bo'lgan menyudan Создать новый тест ni tanlang.
3. Test tipini tanlang: Baholanuvchi yoki anketa (Оцениваемый тест yoki Анкета).

Testni saqlash

Test "QUIZ" tipida saqlanib uni kengaytmasi (kengaytmasi. quiz) bo'ladi. Bu iSpring QuizMaker dasturning formati hisoblanadi. Bunday kengaytmali faylni boshqa dasturlar orqali taxrirlash imkoni yo'q.

Testni saqlash uchun

1. Tezkor tugmalar panelidagi Сохранить yoki Сохранить как... tugmasiga chertiladi. Bundan tashqari

2. Dastur oynasining chap yuqori burchagidagi doira shaklidagi QuizMaker dastur
3. Logotipiga chertiladi va undan Сохранить yoki Сохранить как... ni tanlanadi.

Agar siz ya'ni test yoki boshqa nom bilan saqlamoqchi bo'lsangiz hosil bo'lgan oynada saqlash papkasini tanlanadi va fayl nomini kiritiladi.

Agar mavjud fayldagi (oldin saqlangan) o'zgarishlarni saqlayotgan bo'lsa, bunda saqlash o'sha faylda bajariladi. Yaratilgan testlar bazasini to'rt xil usulda saqlash imkoniyati mavjud. web sahifa, iSpring Online, LMS, Word sahifasi ko'rinishida saqlash mumkin. Test formati sifatida html, exe, zip arxiv faylni tanlash, test nomini o'zgartirish, qo'llanilish ko'lami, saqlanadigan o'rni, fayl nomi va flash rolik hususiyatini tanlab Publikovat tugmasi bosiladi. Bundan tashqari testni kompyuter tarmoqlari orqali ham o'tkazish imkoniyati va elektron pochta orqali yuborish kabi imkoniyatlarining mavjudligi hozirgi zamonaviy ta'lim talablariga ham javob bera oladi [4].

Xulosa qilib aytish mumkinki, iSpring dasturi yordamida o'qituvchilar PowerPoint slaydlarini interaktiv kurslarga aylantirishlari mumkin. Bu kurslar talaba qiziqishi va ma'lumotlarini yaxshi usullarda olishlari uchun juda foydali bo'ladi. iSpring dasturi kurslarni video, audio, animatsiya va boshqa ko'rinishda tuzishni ta'minlaydi. Ishonchli va samarali onlayn ta'limning yo'l haritasini qurish uchun iSpring dasturi juda foydali bo'lishi mumkin. Bu dastur o'qituvchilar uchun yaxshi imkoniyatlar ta'minlaydi va talabalarga qiziqarli va samarali ta'lim yo'l haritasini taqdim etadi.

**ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES**

1. Aripov A.N. Axborot kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish muammolari. - Toshkent 2018.
2. Mo‘minov A. Axborotlashgan jamiyat va shaxsning axborot madaniyatini shakllantirish muammolari//. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari 2012. 3-son B. 148.
3. Xurramov B., Aliyev J. iSpring QuizMaker dasturida mustaqil ishash uchun mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanma–Termiz: 2020.–60 б.
4. Aufderheide, P., Firestone, C. (1993). Media Literacy: A Report of the National Leadership Conference on Media Literacy. Queenstown, MD: The Aspen Institute, p.1.

ISSN: 2181-4058  
DOI Journal 10.56017/2181-4058

# ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 6-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ  
ТОМ-I, НОМЕР-6

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS  
VOLUME-I, ISSUE-6

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)